

**O’ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA TARIXIY JANRDA
YARATILGAN ASARLAR ORQALI TALABALARING BADIY
TASAVVURLARINI O’SТИRISH**

*Otaxanova Nodira Jumanazarovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va amaliy bezak” yo’nalishi
2-bosqich magistratura talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston tasviriy san’atida tarixiy janrda yaratilgan asarlar hamda ushbu asarlar orqali talabalarining badiy tasavvurini yanada shakllantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so’zlar: uzlusiz ta’lim, tarixiy janr, tanqidiy fikrlash, madaniyatshunoslik, milliy maktab .

Kirish. Bugungi yuksak texnologiyalar davrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, zamon talabalariga mos ko’nikma va malakalarini shakllantirish, ularning axloqiy-ma’naviy tarbiyasi, yod g’oyalarga qarshi immunitetini kuchaytirish, sog‘lom fikrlashi vadunyoqarashi, intellektual-ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblastib borayapti. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu muammolarning yechimini topish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi barcha sohalar qatorida ta’lim tizimida ham o’ziga xos, tubdan o’ylangan ishlar amalga oshirilmoqda. Uzlusiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar sifatini oshirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga doir katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o’rtalik va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellek tual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarish, o’quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Shu kabi ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni chuqur o’rganish, ijodiy yondashuvlarni qo’llab-quvvatlash, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog’liq umumiy jihatlar mavjud. Bu esa o’z-o’zidan uzlusiz ta’lim tizimida yoshlardagi ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, badiy tasavvurini rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirishni talab qiladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida ta’lim to‘g‘risida qator qarorlar keltirilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlari qatori badiiy izlanish ham - ijodkorlikdir, bu jarayon insonning qandaydir yangilik yaratishga bo‘lgan faol yondashuvni ifodalaydi hamda ijodiy amaliyat jarayonida pishib yetiladi. Ijodiy amaliyat - bu odatiy bir xillikdan voz kechish va hayotni yanada qiziqarli, maz munli qilish imkoniyatidir. Bu mashg‘ulotlar miya faoliyatini rivojlantiradi, bu esa barcha sohalarda inson faoliyatining yanada samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishiga imkon beradi

Inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo‘lib, uni estetik to’laqoniksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Respublikamizning barcha ta’lim jabhalarida bo‘lganidek, tasviriy san’at sohasi ustida anchagina izlanishlar olib borilgan. Ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish sohasida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan faol ta’lim berish usullarini amalda tatbiq qilish ustida ijobiy ishlar qilinmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, “Ilmiy ishda qaysidir holatlarini tushirib qoldirish, ijod xususiyatlariga asosiy e’tiborni qaratish, hayotiy vaziyatlarni esa ularga ilova sifatida bog‘lab qo‘yish mumkin, ammo bularning barchasi muallifning ishi va huquqi hisoblanadi. Ehtimol rassom haqidagi barcha ma’lumotlar qiziqarli bo‘lgan bunday ishlar va mualliflar uning muhim saqlovchilarini va yetkazuvchilarini hisoblanishi ham mumkin”¹. Ushbu fikrlarga qo‘srimcha sifatida, “Rassomlarni olamdagи tiniq, sof suvda yashaydigan baliqlarning noyob turiga o‘xhatish mumkin. Ular hayotdagi yakxillikka qarshi chiqadilar va shu bilan o‘zlarini ijodkor ekanligini namoyon qiladilar. Tasviriy san’at ustalarining ba’zilarini moddiy manfaatdorlik, ba’zilarini shuhrat, uchinchilarini esa ongning va hayotning o‘rganilmagan tomonlari qiziqtiradi, mana shuning uchun rassomlarning uchinchi toifasi biz uchun qadrli hisoblanadi. Negaki aynan izlanishdan ba’zan atrof borliqdan keskin farq qiluvchi o‘z olamini yaratish, ijod qilishga, izlanishga rag‘bat uyg‘onadi. Hissiyotlardan yaratilgan, rassom yaratgan ajoyib olamdan san’at asari vujudga keladi. Eng avvalo u rassomning erkin idrokidan, o‘zini betakror shaxs ekanligini anglashidan vujudga keladi”²

Ma’lum tarixiy davrlarga xos bo‘lgan tarixiy janrdagi voqelikka aylangan ba’zi tasviriy san’at asarlarini muqobilari bilan solishtirgan holda yanada ajoyib durdonalarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tasviriy san’at ustalari, Ne’mat Qo‘ziboyev 1980 yili ishlagan Abu Ali ibn Sino va Furqat portretlarini; Abdulhaq Abdullayev 1981 yili ishlagan Alisher Navoiy portretini; Javlon Umarbekov shu yili ishlagan “Ongli

¹ Маматов У. The history of one life. // Gisap: Culturology, Sports and Art History. №5, 2015.

² Эгамбердыев А. Мир творчества. Как зарождается искусство живописи. // Вечерний Ташкент. 2017.

inson” asarini; 1983 yili Bahodir Jalolov yaratgan “Raqsning tug‘ilishi” devoriy sur’atidan, Mukarrama Turg‘unboyeva portretini ko‘rsatish mumkin. “Madaniyatda noyob hodisa bo‘lib qolgan tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari ularda aks ettirilgan voqelik to‘laligicha ham tarixiy, ham ahloqiy-madaniy bo‘lgani uchun xuddi egizak asarlari kabi tasavvur beradi.

XX asrda tasviriy san’at asarlari yaratishning yangi tamoyillari shakllana boshladi. Ular ko‘p hollarda akademik an’analariga xos ravishda ishlangan avvalgi tasviriy san’at asarlaridan ajralib turadi. Darhaqiqat, asrlar davomida tasviriy san’at asarlari yaratishning o‘rnashib qolgan badiiy usulari saqlanib qoldi. Badiiy amaliyotda rioxalot qilinishi lozim bo‘lgan qonunlar mavjud bo‘ldi. XIX - XX asrlar o‘rtasida keskin burilish ro‘y berdi. Ilmiy texnik taraqqiyot va ijtimoiy sharoitlarni o‘zgarishi o‘rta asrlar klassikasini, shuningdek XIX tasviriy san’atning stilistik yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan, ilgarigi tarixda ishlab chiqilgan estetik me’yorlar va badiiy tamoyillarni buzib tashladi. O‘zgarayotgan hayot voqeligini hisobga olib yaratilgan tasviriy amaliyotning nazariy va amaliy bazasining mavjudligi muhim shart hisoblanadi. III asrda O‘zbekistonning janubidagi Baqtriya davlatida tasviriy san’at yetakchi o‘rin egallagan badiiy madaniyat mavjud bo‘lgan edi. Bu davrda rangtasvir va haykaltaroshlik jadal rivojlandi. Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon va boshqa tarixiy joylarda olib borilgan qazishma ishlar paytidagi topilmalar bu san’at haqida tasavvur beradi. O‘zbekistonning janubini o‘z ichiga olgan Kushon imperiyasida shohlar, malikalar, shahzodalar, elchilar va boshqalar aks ettirilgan tasviriy san’at asarlari topilgan. Kushon davri mahobatli haykaltaroshligi cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan hukmdor obrazini yaratishga qaratilgan. Mahalliy badiiy madaniyat genezisi xususiyatlarini aks ettiruvchi avlodlar san’atini (mohiyatan saroy san’ati) paydo bo‘lishi bu davr madaniyati va davlatning o‘zaro aloqalari xususiyatlaridan biri bo‘lib qoldi. Yuqorida keltirilgan fikr shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixiy janri ibtidosi eramizning birinchi asrlaridan boshlangan uzoq tarixga ega.

XIX asr oxiridan tasviriy san’atga maktablarning akademik an’analaridan, ularning asar yaratishdagi sanamchilik mavzulariga murojaatidan farqlanib turadi. XIX asr ikkinchi yarmi Yevropa va Rossiya rassomlari plener rangtasvirini egallay boshladilar. Sezan, Mone, Renuar, Van Gog, Gogen kabi rassomlar jahon madaniyati durdonasi bo‘lib qolgan san’at asarlari yaratdilar. Rossiyada I.Repin, V.Serov, K.Korovin, M.Vrubel kabi rassomlar rangtasvirda yuksak cho‘qqilarga erishdilar. Ulardan ko‘philigi o‘z asarlarida xalq hayoti va uning tarixidan sahnalar aks ettirdilar. Klassik san’atining o‘zi esa muzeylarda tasviriy san’at shaklda va akademik badiiy shaklida, shuningdek o‘z asarlarini realistik yo‘nalishda yaratgan mualliflar yashashda davom etdi. Tarixiy janrdagi asarlarda kompozitsiya tuzishning akademik usullarni qo‘llashning umumiyligi tamoyillari O‘zbekistonning mashhur tasviriy san’ati ustalarining ijodida yetakchi yo‘nalish bo‘lib qolaverdi. Ular ommaviy aloqalar

tizimiga, badiiy rejalar estetikasiga kiritilgan. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish bilan bog‘liq bosqinchilik yurishida rus armiyasi bilan birga Vereshchagin, Dudin, Bure, Kozakov singari rassomlar ham ishtirok etgan edi, ular harbiy-siyosiy va ilmiy-etnografik ekspeditsiyalarda qatnashdilar. Ba’zi rassomlar o‘z asarlarida Turkiston xalqi hayotidan sahnalar aks ettirdilar. “O‘rta Osiyoning XIX asr oxiri va XX asr boshlari davomidagi tasviriy san’atining genezisi va yangi shakllarining rivoji noyob tarixiy-madaniy fenomen bo‘lib qoldi. Muqim, asriy, estetik an'anaga ega bo‘lgan o‘lkada global madaniy o‘zgarishlar ro‘y berdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonni bosib olish jarayonida o‘lkadagi yetakchi shaharlarga yangi tasviriy san’at kirib kela boshladi va estetikaning yevropacha shakllarini targ‘ib qiluvchi kichikroq mahalliy markazlarini tashkil qildi”. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yangicha shakl-shamoyildagi san’at turlari shakllandı, u voqelikni yevropacha klassik mакtablar, xususan rus badiiy akademik mакtabi talqini tamoyiliga asoslangan edi. XX asr ikkinchi yarmi tasviriy san’ati O‘zbekiston tasviriy san’atlari bosqichidan biri hisoblangan davrda vujudga keldi va rivojlandi. U avvalgi asrlar tasviriy san’atidan tubdan farq qildi. Yevropaga xos bo‘lgan rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik singari tasviriy san’at shakllari paydo bo‘ldi. Rassomlar uyushmasi tarkibida tasviriy san’atning turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘ntacha seksiya faoliyat ko‘rsatdi. Reja asosida ko‘rgazmalar tashkil etildi. Ularda rangtasvir, haykaltaroshlik, kitob grafikasi, kulolchilik, plakat janridagi asarları namoyish etildi. Milliy mакtablarning miniatyura yaratish an'anaviy usularini egalash tendensiyasi Ch.Axmarov, B.Jalolov, O.Xabibulin singari tasviriy san’at ustalarining mahobatli devoriy suratlarida o‘z aksini topdi. Muzeylar va galereyalarda M.Nabihev, Q.Nosirov, V.Jmakin, V.Viko singari rassomlar ishlagan tasviriy san’atning tarixiy janridagi asarlar namoyish etildi. Chunonchi, ba’zi asarlar qizil armiyaning bosmachilar ustidan qozongan g‘alabasiga bag‘ishlangan edi. Yarim asr o‘tganidan so‘ng ilmiy-tarixiy tadqiqotlar natijasida o‘zbek xalqining bosmachi deb atalgan qismi o‘tgan asrning 1918-1921-yillarida o‘z Vatani ozodligi uchun kurashganlar sifatida tan olindi. XX asrning ikkinchi yarmida tasviriy san’atdagi sotsialistik realizm siyosati va aqidalariga nisbatan salbiy munosabatga qaramasdan, “nafaqat milliy, balki butunjahon tarixidan o‘rin olgan haqqoniy ravishda mashhur bo‘lgan arxitektorlar, rassomlar, aktyorlar, rejissyorlar va kompozitorlarimizning ijodiy daholigi yorqin namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston madaniyatidagi tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlarini madaniyatshunoslik, tarix, falsafa va san’atshunoslik nuqtai nazaridan fanlararo o‘rganildi. Mazkur ish ommabop, zamondoshlarimizga tushunarli tilda yozildi. Qadimgi Ellada Afina mакtabining olimlari o‘z asarlarini shunday tilda yozganligi tufayli jahondagi ko‘pgina mamlakatlar xalqlarining madaniyatini va fanini rivojlanishiga turtki bergen edi. Lao-tszi va Konfutsiy asarlarida bayon qilgan ilmiy

tushunchalar barchaga tushunarli bo‘lgani uchun ularni Xitoy, Yaponiya va Koreya yoshlari maktabdayoq o‘qib o‘rganganlar. Hozirgi kunlarda bu mamlakatlar nihoyatda rivojlanib ketgan. O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo mutafakkirlari Imom al Buxoriy “Hadis”larini, Amir Temur “Tuzuklari”ni, Alisher Navoiy “Xamsa”sini ana shunday zamondoshlari uchun tushunarli til bilan talqin etdilar. Aynan shuning uchun ham bu asarlar ko‘p asrlar davomida xalqimiz ma’naviy hayotidan katta o‘rin egallab kelyapti. Xalqimiz bu intellektual-axloqiy madaniyat yodgorliklarni yaratgan shaxslar nomini hamisha yodida saqlaydi va qadrlaydi. Hozirgi davrda ham O‘zbekistonning V.Zohidov, H.Sulaymonov, R.Toqtosh, S.Shermuhamedov, G.Pugachenkova, shu kunlarda E.Rtveladze, N.Karimov, A.Hakimov, D.Alimova, E. va N.Ahmedovalar singari olimlar ilmiy tadqiqotlari natijalarini tushunarli tilda talqin etmoqdalar. Tarix va madaniyat saboqlari alohida e’tibor berish lozim bo‘lgan milliy ong va vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan bog‘liq. Bu saboqlar orqali tomoshabin o‘zini millat vakili sifatida anglaydi, o‘z madaniyati, o‘z xalqining axloqiy va ma’naviy-estetik qadriyatlarini va boshqa mamlakat madaniyatini hurmat qila boshlaydi. Tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlarini yaratish muammosi tarixiy shaxslar va voqealarni sifatlari aks ettirishdan iborat bo‘ladi. Tasviriy san’at ustalarining badiiy madaniyati, kasbiy mahorati, sezgisi asarlarning g‘oyaviy tematik mazmuni sifatlari aks ettirilishida ko‘rinadi. Tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlarining badiiy tili katta kuchga ega bo‘ladi, tomoshabin ongi va qalbiga chuqur ta’sir qiladi. Ular komil insonni estetik va ma’naviy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Hujjalilik, aniqlik va ma’lumotlarning haqqoniyligi O‘zbekiston madaniyatidagi tarixiy janrlardagi tasviriy san’at asarlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

O‘zbekistondagi milliy mакtab doirasida tasviriy san’atning boshqa turlari kabi tarixiy janr ham XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlandi. Milliy maktabning o‘ziga xosligini qandaydir umumiyl xususiyatlarga taqab bo‘lmaydi. U bu xususiyatlarning betakrorligida namoyon bo‘ladi, ularning har biri alohida olingan holatda ham umuminsoniy mulk hisoblanadi. O‘zbekistonda bu davrlarda yaratilgan tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari tomoshabin ko‘z oldida fikrlar, hissiyotlar va shakl-shamoyil, usullarning ko‘pqirrali ranginligini namoyon qiladi. Zero, bunda ularning o‘ziga xosligi tashqi ko‘rinishlaridagina emas, balki rassom ongingining chuqur qatlamlarida va uning xalqining madaniy tajribasida vujudga keladi. XX asr ikkinchi yarmidagi milliy tasviriy san’at maktabining muhim farqlaridan biri O‘zbekistondagi yirik respublika ko‘rgazmalarida kuzatildi, rassomning tarixiy voqelik sifatidagi milliy estetik an’analarga e’tiborida ko‘rindi. Haqqoniyl tarix urf-odatlarni, jo‘shqin maylni, insoniy timsollarning axloqiy qonunlarini belgilab beradi, ular bir millatga mansub insonlarning bir-biriga, tabiatiga va tashqi olamga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Bu an’ana avloddan-avlodga o‘sib boraveradi, xalqning ma’naviy va moddiy madaniyatining barcha yodgorliklarida o‘z aksini topadi. Rassom shaxs sifatida

shakllanib borgani sayin o‘z xalqi an’analari, hayot tarzini o‘zida singdirib boraveradi. Har bir katta tasviriy san’at asarları uchun dolzarb bo‘lgan milliy etik o‘z-o‘zini anglash muammosining murakkabligi shunda. O‘tgan asrning boshlari va ikkinchi yarmida O‘rtta Osiyoga, xususan O‘zbekistonga olib kelingan yevropacha klassik tasviriy məktəb tili o‘zbek tasviriy san’at maktablari, xususan o‘rtta asrlar miniyaturları milliy badiiy an’analari bilan uyg‘unlashib ketdi. Olamni badiiy aks ettirish tilining bu uyg‘unlashuvi ijodiy izlanishlar va tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarini yaratish jarayonida tarixiy mavzulardagi devoriy suratlar va rangtasvir asarlarida o‘z aksini topdi. Taniqli sanat ustalari Malik Nabihev, Chingiz Axmarov, Rahim Ahmedov, Abdulhaq Abdullayev, Ne’mat Qo‘ziboyev, Ro‘zi Choriyev, Sa’dulla Abdullayev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov kabilalar o‘z asarlarini shunday yaratdilar va yaratmoqdalar. Ular yaratgan asarlar O‘zbekiston va xorijdagi ko‘plab muzeylelar, galereyalar, davlat muassasalarida namoyish etilmoqda. 1939 yili Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyini tashkil etilishi bu davr tasviriy san’ati rivojidagi assosiy omillardan biri bo‘ldi. Muzey buyuk shoir tavalludiga 500 yil to‘lishi munosabati bilan tashkil etildi.

O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixiy janrdagi asarlariga xos bo‘lgan ma’lum xalqona tarbiyaviy yo‘nalish jamlangan. U o‘z navbatida tabiatiga, xalqni ma’naviy tarbiyalashdek o‘z ijtimoiy vazifasini bajarishga intildi. Bu jarayon tasviriy san’at tanqidi va uni ommalashtirish bilan shug‘ullanayotgan gumanitar sohalar mutaxassislari oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Tasviriy san’at tarixiy janri taraqqiyoti manfaati yuzasidan tasviriy san’at ustalarining barcha ijodiy izlanishlarini madaniyatshunoslik va san’atshunoslik nuqtai nazaridan aks ettiruvchi va anglovchi joriy badiiy amaliyotni mufassal tahlil qilish talab etiladi. Bevosita tomoshabinlar ommasiga qaratilgan targ‘ibot ishlari nihoyatda muhimdir. Bunda muzeylarda, badiiy galereyalar va ko‘rgazma zallarida ishlayotgan mutaxassislar tajribasiga ehtiyoj ortaveradi. Yangi g‘oyalar, mavzular, hayot talablari asosida ifodaviy usullar kabilar bilan boyib, yangilanib borayotgan tasviriy san’at tarixiy janrlaridagi asarlar tomoshabinlarda ko‘plab savollarni uyg‘otmoqda. Omma va tasviriy san’at tarixiy janrlari o‘rtasidagi muloqot samarali bo‘lishi kerak. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, tasviriy san’atdagi ijodiy tafakkurning jonli harakati nafaqat ijodkorlar, balki ijod namunalari tomoshabinlari orasida ham o‘z ustida ma’naviy ishlar olib borishni talab qiladi.

Xulosa. Tasviriy san’at talabalarning badiiy tasavvur va ijodkorligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. San’at asarlarini o‘rganish va yaratish orqali talabalar o‘zlarini ko‘zda tuyiladigan holda ifodalashni va tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni o‘rganishlari mumkin. San’at ta’limi talabalarga turli madaniyatlar va tarixiy davrlarga hurmatni rivojlantirishga ham, san’atning jamiyatdagi roldan tushunishga ham yordam beradi. San’at ta’limi talabalarga ko‘plab

foydalar keltirib, san'at ta'limi orqali talabalar o'zlarini ko'zda tuyiladigan holda ifodalashni o'rghanishadi. Bu esa ularning ijodkorligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, san'at ta'limi orqali talabalar san'atning jamiyatdagi roldan tushunishlari mumkin. San'at ta'limini darslikka kiritishning ko'plab usullari mavjud. Masalan, darslikka san'at tarixi bo'yicha mavzularni kiritish, talabalarni san'at asarlarini o'rghanishga undash, talabalarga o'zlarining san'at asarlarini yaratish imkonini berish mumkin. Talabalarga san'atni o'qitish uchun ko'plab resurslar mavjud. Masalan, internetda ko'plab san'at ta'limi bo'yicha saytlar va darsliklar mavjud. Shuningdek, maktab kutubxonalari va muzeylarda ham talabalarga san'atni o'rghanishga yordam beradigan resurslar mavjud. Shundan kelib chiqadiki, tasviriy san'at, jumladan tarixiy asarlar orqali talaba yoshlarda badiiy tafakkur shakllanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш // "Замонавий таълим" илмий-амалий оммабоп журнали, №11, 2016. -59-64 б.
3. Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Санъат дўстликни мустаҳкамловчи омил // "Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар" халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами./ II том. Чирчиқ 2019. 443-444 б.
4. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат таълимида кластер ёндашуви таълимтарбия тизимини такомиллаштириш омили /Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi № 4-sonli respublikasi ko'p tarmoqli, ilmiy konferensiya// 22-dekabr 2022-yil 236-242 б.
5. Хайтбой Эралиевич Султанов, Нилюфар Хикматуллаевна Бойназарова Тасвирий санъат таълимида кластер ёндашуви орқали ёшларнинг маънавий дунёқарашини шакллантириш // Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities / 2023/03/15 pages – 376-382
6. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
7. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
8. F. Bozorov. Ijodiylar yoshlarni tasviriy san'atdan tasvirlash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi// "Science and Education" Scientific

Journal / Impact Factor - 3.567 (SJIF) August 2022 / Volume 3 Issue - 8 pages – 130-137

9. Otaxonova Nodira Jumanazarovna Tasviriy va amaliy san'at bo'yicha tashkil etiladigan to'garaklarda o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga yo'naltirish va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yishning uslubiy jihatlari // научный журнал Интернаука/ Москва, 2022 № 3(52) - ст 65-69

10. Имоматова У.М. Композицияда эскиз бажариш орқали бадиий тасаввурни ошириш // INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE/ a collection of scientific works of the International scientific online conference (19th March, 2023) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2023. Part 12. Pages: 19-23.

11. Otaxonova Nodira Jumanazarovna Tarixiy shaxslar yaratish orqali milliy vatanzavarlik ruhida tarbiyalash // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali/ 2023. ISSN 2181-7324. 140-144

12. Бердиев Достон Абдувойтович Кластер ҳамкорлигига ташкил этилган тасвирий санъат тўгаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.

13. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 187–193.

14. Abduvoitovich B. D. TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.

15. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). TASVIRIY SAN'ATNING FANLARARO ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI. *PEDAGOGS Jurnali*, 31(1), 142–148.

16. Laylo Mirsoatova/ Use of innovative methods in the development of students' creative abilities / Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 03 issue 01Pages: 45-49

17. Бердиев Достон Абдувойтович. (2023). Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). *Научный импульс*, 1(9), 520–527.

18. Imomatova Umida Mirpulatovna MUSTAQILLIK DAVRIDA HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI // Journal of new century innovations / Pages: 37-42